



**NUTQ MADANIYATI VA MEDIA TIL: NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI,
KOMMUNIKATIV XUSUSIYATLARI HAMDA ZAMONAVIY AXBOROT MAKONIDAGI
TA'SIR OMILLARI**

Sotvoldiyeva Ismigul

Osiyo xalqaro universiteti

ORCID: 0009-0004-7320-0211

sotvoldiyevaismigul1999@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada nutq madaniyati va media tilning nazariy-metodologik asoslari, ularning o'zaro aloqadorligi hamda zamonaviy axborot makonidagi kommunikativ xususiyatlari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda media tilning adabiy til me'yorlariga ta'siri, media matnlarda neologizmlar, terminlar, jargon va sleng birliklari, kalkalash, imloviy va grammatik me'yor buzilishlari kabi hodisalarning nutq madaniyatidagi o'rni yoritilgan.

Kalit so'zlar: nutq madaniyati, media til, medialingvistika, adabiy til me'yorlari, media matn, kommunikativ madaniyat, pragmatika, uslubiy me'yor, raqamli media, axborot madaniyati.

**РЕЧЕВАЯ КУЛЬТУРА И ЯЗЫК СМИ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ
ОСНОВЫ, КОММУНИКАТИВНЫЕ ОСОБЕННОСТИ И ФАКТОРЫ ВЛИЯНИЯ В
СОВРЕМЕННОМ ИНФОРМАЦИОННОМ ПРОСТРАНСТВЕ**

Сотвольдиева Исмигуль

Азиатский международный университет

Аннотация. В данной статье научно анализируются теоретические и методологические основы речевой культуры и языка СМИ, их взаимосвязи и коммуникативные особенности в современном информационном пространстве. Исследование охватывает влияние языка СМИ на литературные языковые нормы, роль таких явлений в речевой культуре, как неологизмы, термины, жаргонные и сленговые единицы, исчисление, нарушения орфографических и грамматических норм в текстах СМИ.

Ключевые слова: речевая культура, язык СМИ, лингвистика СМИ, литературные языковые нормы, текст СМИ, коммуникативная культура, прагматика, стилистические нормы, цифровые СМИ, информационная культура.

**SPEECH CULTURE AND MEDIA LANGUAGE: THEORETICAL AND METHODOLOGICAL
FOUNDATIONS, COMMUNICATIVE FEATURES AND FACTORS OF INFLUENCE IN THE
MODERN INFORMATION SPACE**

Sotvoldiyeva Ismigul

Asian International University

Abstract. This article scientifically analyzes the theoretical and methodological foundations of speech culture and media language, their interrelationships and communicative features in the modern information space. The study covers the influence of media language on literary language norms, the role of such phenomena in speech culture as neologisms, terms, jargon and slang units, calculus, violations of spelling and grammatical norms in media texts.

Keywords: speech culture, media language, media linguistics, literary language norms, media text, communicative culture, pragmatics, stylistic norms, digital media, information culture.

Kirish.

Zamonaviy axborot jamiyatida til nafaqat aloqa vositasi, balki ijtimoiy ong, madaniy tafakkur, kommunikativ munosabatlar va axborot iste'moli madaniyatini shakllantiruvchi muhim ijtimoiy-lingvistik hodisa sifatida namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, ommaviy axborot vositalari, internet nashrlari, ijtimoiy tarmoqlar, bloggerlik platformalari va raqamli kommunikatsiya kanallari orqali shakllanayotgan media til bugungi kunda keng auditoriyaning nutqiy didi, axborotni qabul qilish uslubi va adabiy til me'yorlariga munosabatini belgilovchi asosiy vositalardan biriga aylanmoqda. Nutq madaniyati insonning adabiy til me'yorlariga rioya qilgan holda fikrni aniq, ravon, mantiqiy, ta'sirchan va etik jihatdan maqbul ifodalash qobiliyatini anglatadi. Media til esa ommaviy kommunikatsiya sharoitida shakllanadigan, tezkorlik, ommaviylik, ekspressivlik, pragmatik yo'naltirilganlik va auditoriyaga ta'sir ko'rsatish imkoniyatlari bilan ajralib turuvchi maxsus til ko'rinishidir. Demak, nutq madaniyati va media til o'rtasidagi munosabat bir tomonlama emas, balki o'zaro ta'sirchan va murakkab jarayon sifatida baholanishi lozim.

Bugungi raqamli axborot makonida media matnlar qisqa vaqt ichida tayyorlanadi, tahrir jarayonlari ba'zan cheklanadi, axborot tezligi til me'yorlaridan ustun qo'yiladi. Natijada media matnlarda imloviy, grammatik, uslubiy va pragmatik xatolar, asossiz kalkalash, ortiqcha xorijiy so'zlardan foydalanish, manipulyativ sarlavhalar va slenglashuv kuchaymoqda. Bunday holatlar nutq madaniyatiga bevosita ta'sir ko'rsatib, auditoriya ongida noto'g'ri til shakllarining odatiy me'yor sifatida qabul qilinishiga sabab bo'lishi mumkin.

Mazkur maqolaning maqsadi nutq madaniyati va media tilning nazariy-metodologik asoslarini tahlil qilish, media tilning kommunikativ xususiyatlarini ochib berish hamda zamonaviy axborot makonida media matnlarning adabiy til me'yorlariga ta'sirini ilmiy jihatdan baholashdan iborat.

Adabiyotlar sharhi.

Nutq madaniyati masalasi tilshunoslikda adabiy til me'yorlari, kommunikativ sifatlar, uslubiy moslik va nutq etikasi bilan uzviy bog'liq holda o'rganilgan. O'zbek tilshunosligida Qo'ng'urov, Begmatov, Tojiyev (1992), Qudratov (1993), Mahmudov (2007), Safarov (2008) kabi olimlarning tadqiqotlarida nutq madaniyatining nazariy asoslari, adabiy til me'yorlari, uslubiy to'g'rilik, kommunikativ aniqlik va pragmatik moslik masalalari keng yoritilgan. Xususan, nutq madaniyati faqat grammatik to'g'rilik bilan emas, balki fikrning aniqligi, mantiqiyliqi, ta'sirchanligi, o'rinaligi va etik mezonlarga mosligi bilan belgilanadi.

Media til masalasi esa medialingvistika, diskurs tahlili, kommunikatsiya nazariyasi va pragmalingvistika doirasida tadqiq etiladi. Maklyuen (1964) ommaviy axborot vositalarining inson tafakkuri va ijtimoiy munosabatlarga ta'sirini "media - inson imkoniyatlarining kengaytmasi" sifatida talqin qiladi. Van Deyk (1988) yangilik matnlarini diskurs sifatida o'rganib, media axborotining tuzilishi, ijtimoiy konteksti va auditoriyaga ta'sir mexanizmlarini ochib beradi.

Dobrosklonskaya (2008) medialingvistikani ommaviy axborot vositalari tilini tizimli o'rganadigan mustaqil ilmiy yo'nalish sifatida asoslaydi. Bell (1991), Fairclough (1995), Crystal (2006) kabi tadqiqotchilar media tilning sotsiolingvistik, diskursiv va internet kommunikatsiyasi bilan bog'liq xususiyatlarini tadqiq etganlar. Ularning ishlarida media matnlarning ommaviylik, tezkorlik, pragmatik ta'sirchanlik, sarlavhaviy ekspressivlik va ideologik yuklamaga ega ekanligi asoslangan. Shuningdek, Grice (1975) va Austinning (1962) nutq aktlari hamda kommunikativ hamkorlik haqidagi qarashlari media matnlarning pragmatik ta'sirini baholashda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, nutq madaniyati va media til alohida-alohida ko'plab tadqiqotlarda o'rganilgan bo'lsa-da, ularning o'zaro aloqadorligi, ayniqsa raqamli media sharoitida adabiy til me'yorlariga ta'siri, media matnlarning grammatik, leksik,

pragmatik va etik mezonlar asosida baholanishi masalasi yanada chuqur tadqiq etishni talab etadi (Hymes, 1972).

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur tadqiqotda nutq madaniyati va media til o'rtasidagi munosabatni o'rganishda kompleks lingvistik yondashuvga tayanildi. Tadqiqot jarayonida ilmiy abstraksiya, qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv, diskurs tahlili, pragmalingvistik tahlil, kontent tahlil, tasniflash va umumlashtirish usullaridan foydalanildi.

Ilmiy abstraksiya usuli orqali nutq madaniyati va media tilning umumiy nazariy belgilari ajratib olindi. Qiyosiy tahlil usuli yordamida adabiy til me'yorlari va media matnlardagi real qo'llanish holatlari o'zaro solishtirildi. Diskurs tahlili media matnlarning ijtimoiy kontekst, auditoriya va kommunikativ maqsad bilan bog'liq jihatlarini o'rganishga xizmat qildi. Pragmalingvistik yondashuv esa media tilning auditoriyaga ta'sir ko'rsatish, ishonitirish, baholash, emotsional munosabat uyg'otish va axborotga yo'naltirish funksiyalarini aniqlash imkonini berdi (Safarov, 2008).

Tadqiqotning metodologik asosi sifatida quyidagi mezonlar belgilandi: media matnning adabiy til me'yorlariga mosligi, imloviy va grammatik to'g'riligi, uslubiy tabiiyligi, kommunikativ samaradorligi, auditoriyaga tushunarligi, etik mas'uliyati hamda axborot mazmunining aniqligi. Ushbu mezonlar asosida media tilning nutq madaniyatiga ijobiy va salbiy ta'sirini aniqlashga qaratilgan mualliflik ishlanmalari ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Media tilning nutq madaniyatiga ta'siri ikki tomonlama xarakterga ega. Bir tomondan, media til adabiy til me'yorlarini ommalashtirish, yangi termin va tushunchalarni keng auditoriyaga yetkazish, jamiyatda axborot savodxonligi va kommunikativ madaniyatni rivojlantirishga xizmat qiladi. Ikkinchi tomondan, tahrir nazoratining sustligi, tezkorlik talabi, avtomatik tarjima vositalaridan nazoratsiz foydalanish, sarlavhalarda emotsionallik va keltirib chiqaruvchi ifodalarning ortishi adabiy til me'yorlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Media tilning nutq madaniyatiga ta'siri bir yoqlama jarayon emas, balki media muhit omillari, kommunikativ ehtiyojlar, til me'yorlari va auditoriya qabul qilish madaniyati bilan bog'liq murakkab tizimli hodisadir. Raqamli platformalar, ijtimoiy tarmoqlar, blogerlik faoliyati, tezkor axborot almashinuvi va avtomatik tarjima vositalari media tilning leksik, grammatik, uslubiy hamda pragmatik xususiyatlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi.



1-rasm. Media tilning nutq madaniyatiga ta'sirini ifodalovchi konseptual model

Manba: muallif ishlanmasi.

Ushbu jarayon, o'z navbatida, adabiy til me'yorlarining mustahkamlanishi yoki me'yoriy buzilishlarning ommalashuviga sabab bo'lishi mumkin. Shu bois media tilning nutq madaniyatiga ta'sirini tizimli yondashuv asosida quyidagi konseptual model orqali ifodalash mumkin.

1-rasmda media tilning nutq madaniyatiga ta'siri bosqichma-bosqich va o'zaro bog'liq tizim sifatida ifodalangan. Modelga ko'ra, media muhit omillari media tilning ommaviylik, ekspressivlik, qisqalik, pragmatik ta'sirchanlik va sarlavhaviy kuchaytirish kabi xususiyatlarini shakllantiradi. Ushbu xususiyatlar esa imlo, grammatika, leksika, uslub, pragmatika va etik me'yorlarga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Natijada media til nutq madaniyatini rivojlantiruvchi omil sifatida savodxonlikni oshirishi yoki aksincha, me'yoriy buzilishlarning ommalashuviga olib kelishi mumkin. Demak, media matnlarni yaratish va tarqatishda adabiy til me'yorlari, kommunikativ mas'uliyat hamda axborot madaniyatiga rioya qilish nutq madaniyatini ta'minlashning muhim sharti hisoblanadi.

Media matnlarda eng ko'p uchraydigan holatlardan biri leksik qatlamdagi o'zgarishlardir. Neologizmlar, terminlar, internet slengi, jargon birliklari, inglizcha va ruscha so'zlar media til tarkibida faol qo'llanmoqda. Bunday jarayon bir tomondan tilning zamonaviy kommunikatsiya ehtiyojlariga moslashayotganini ko'rsatsa, ikkinchi tomondan o'zbek tilida mavjud muqobillar e'tibordan chetda qolishi, ortiqcha xorijiylashuv va uslubiy nomutanosiblikni keltirib chiqarishi mumkin.

Grammatik va imloviy xatolar ham media tilning dolzarb muammolaridan biridir. Lotin yozuvidagi o'zbek matnlarida apostrof belgilarining noto'g'ri qo'llanishi, bosh harf va kichik harflar me'yorining buzilishi, qo'shib va ajratib yozishdagi xatolar, ruscha yoki inglizcha sintaktik qoliplarni bevosita ko'chirish, tinish belgilaridan noto'g'ri foydalanish kabi holatlar uchraydi. Bunday xatolar media orqali takroriy tarqalganda, auditoriya ongida noto'g'ri shakllarning me'yorlashuviga olib kelishi mumkin.

1-jadval

Media tilning nutq madaniyatiga ta'sirini baholash mezonlari

Baholash mezonlari	Mazmuni	Media matndagi namoyon bo'lishi	Nutq madaniyatiga ta'siri
Me'yorilik	Adabiy til, imlo, grammatika va punktuatsiya qoidalariga rioya qilish	so'z, gap va tinish belgilarining to'g'ri qo'llanishi	savodxonlikni mustahkamlaydi
Kommunikativ aniqlik	Axborotning tushunarli va aniq ifodalanishi	mavhumlik, ikki ma'nolilikning yo'qligi	auditoriya anglashini yengillashtiradi
Uslubiy tabiiylik	Matnning o'zbek tili tabiatiga mosligi	sun'iy tarjima va g'aliz gaplarning yo'qligi	nutq ravonligini oshiradi
Pragmatik samaradorlik	Matnning kommunikativ maqsadga muvofiqligi	axborot berish, ishontirish, ogohlantirish, baholash	auditoriyaga ta'sirni kuchaytiradi
Etik mas'uliyat	Matnda hurmat, xolislik va madaniy ifoda saqlanishi	haqorat, kamsitish, manipulyatsiyadan qochish	media muloqot madaniyatini oshiradi
Auditoriyaga moslik	Matnning qabul qiluvchi guruh saviyasi va ehtiyojiga mosligi	termin va qisqartmalarni izohlash	ommaviy tushunarlilikni ta'minlaydi

Manba: muallif ishlanmasi.

Mazkur mezonlar media matnlarni faqat lingvistik shakl jihatidan emas, balki kommunikativ, pragmatik va etik nuqtayi nazardan ham baholash imkonini beradi. Ayniqsa, media matnda me'yoriylik va kommunikativ samaradorlikning uyg'unligi nutq madaniyatining asosiy sharti hisoblanadi.

2-jadval

Media matnlarda uchraydigan me'yoriy buzilishlar tasnifi

Buzilish turi	Asosiy ko'rinishi	Yuzaga kelish sababi	Bartaraf etish yo'li
Imloviy buzilish	apostrof, bosh harf, qo'shib-ajratib yozish xatolari	tahrir yetishmasligi, tezkorlik	imlo nazoratini kuchaytirish
Grammatik buzilish	ega-kesim mosligi, kelishik va qo'shimcha xatolari	og'zaki nutq ta'siri, savodxonlik muammosi	grammatik tahrirni joriy etish
Sintaktik buzilish	ruscha yoki inglizcha gap qoliplarini ko'chirish	avtomatik tarjima, kalkalash	matni o'zbek tili sintaksisiga moslashtirish
Leksik buzilish	ortiqcha xorijiy so'zlar, noo'rin jargon va sleng	moda, blogerlik uslubi, auditoriyani jalb qilish	o'zbekcha muqobillardan foydalanish
Uslubiy buzilish	rasmiy va norasmiy uslub aralashuvi	janr talabini bilmaslik	media janrlar bo'yicha uslubiy me'yor yaratish
Etik buzilish	kamsituvchi, manipulyativ yoki asossiz baholovchi ifodalar	auditoriyani jalb qilishga haddan ortiq intilish	etik kodeks va tahririy nazorat

Manba: muallif ishlanmasi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, media tilidagi xatolar tasodifiy hodisa emas, balki texnologik, kommunikativ va institutsional omillar bilan bog'liq. Xususan, raqamli media sharoitida axborot tezligi til me'yorlariga rioya qilishdan ustun qo'yilganda, media matnning savodxonlik darajasi pasayadi. Media tilning nutq madaniyatiga ta'sirida sarlavhalar alohida o'rin tutadi. Chunki sarlavha media matnning eng ko'p o'qiladigan, auditoriyani jalb qiladigan va matn mazmuni haqida dastlabki tasavvur beradigan qismidir. Bugungi internet nashrlarida sarlavhalarda emotsional baholash, hayrat uyg'otuvchi birliklar, kuchaytiruvchi so'zlar, savol shaklidagi konstruksiyalar va ba'zan manipulyativ ifodalardan foydalanish kengaymoqda. Bunday holat auditoriya e'tiborini jalb qilsa-da, axborotning xolisligi va nutq madaniyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Raqamli media makonida nutq madaniyatini ta'minlash faqat individual savodxonlik masalasi emas, balki tahririy siyosat, media tashkilotlar mas'uliyati, texnologik vositalar, ta'lim tizimi va auditoriya madaniyati bilan bog'liq kompleks jarayondir.

Ushbu mexanizm media tilni me'yoriy, kommunikativ va etik jihatdan tartibga solishga xizmat qiladi. Uning afzalligi shundaki, u nutq madaniyatini faqat tahrir jarayoni bilan cheklamaydi, balki diagnostika, me'yorlashtirish, texnologik qo'llab-quvvatlash, kadrlar malakasi va monitoringni yagona tizim sifatida ko'rib chiqadi. Tahlillar asosida aytish mumkinki, media til nutq madaniyatining rivojlanishida kuchli ijtimoiy-lingvistik omil hisoblanadi.

Raqamli media makonida nutq madaniyatini ta'minlash mexanizmi

Bosqich	Amalga oshiriladigan ishlar	Kutiladigan natija
1. Diagnostika	media matnlardagi imlo, grammatika, uslub va etik xatolarni aniqlash	mavjud muammolar bazasi shakllanadi
2. Me'yorlashtirish	media uslubiy qo'llanma, terminlar ro'yxati va qisqa matn me'yorlarini ishlab chiqish	yagona tahririy til siyosati yaratiladi
3. Tahririy nazorat	korrektorlik, lingvistik tahrir va faktcheking bosqichlarini joriy etish	matn sifati va ishonchliligi oshadi
4. Texnologik qo'llab-quvvatlash	elektron imlo tekshiruv, korpus va AI vositalaridan foydalanish	xatolarni tez aniqlash imkoniyati kuchayadi
5. Malaka oshirish	jurnalist, muharrir va blogerlar uchun nutq madaniyati treninglari	kontent yaratuvchilarning lingvistik kompetensiyasi oshadi
6. Monitoring	e'lon qilingan materiallarning muntazam tahlili	me'yoriy barqarorlik ta'minlanadi

Manba: muallif ishlanmasi.

Agar media matnlar adabiy til me'yorlari, uslubiy tabiiylik, etik mas'uliyat va auditoriyaga moslik asosida yaratilsa, ular jamiyatda nutqiy savodxonlikni oshiradi. Aksincha, tahrirsiz, imloviy va grammatik xatolarga boy, manipulyativ hamda g'aliz media matnlar nutq madaniyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa va takliflar.

Nutq madaniyati va media til zamonaviy axborot jamiyatida o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan lingvistik va kommunikativ hodisalardir. Media til adabiy til me'yorlarini ommalashtirish, yangi tushunchalarni joriy etish, axborot savodxonligini oshirish va jamiyatning kommunikativ madaniyatini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, raqamli media muhitida tahrir nazoratining sustligi, tezkorlik talabi, avtomatik tarjima, asossiz kalkalash, sleng va jargon birliklarining ortiqcha qo'llanishi nutq madaniyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Tadqiqot natijalari media matnlarni baholashda me'yoriylik, kommunikativ aniqlik, uslubiy tabiiylik, pragmatik samaradorlik, etik mas'uliyat va auditoriyaga moslik mezonlaridan foydalanish zarurligini ko'rsatdi. Biz tomonimizdan taklif etilgan media tilning nutq madaniyatiga ta'sirini baholash mezonlari, media matnlardagi me'yoriy buzilishlar tasnifi hamda raqamli media makonida nutq madaniyatini ta'minlash mexanizmi media tilni ilmiy tahlil qilish va amaliy jihatdan takomillashtirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, zamonaviy axborot makonida nutq madaniyatini yuksaltirish uchun media tahririyatlarida lingvistik nazoratni kuchaytirish, jurnalistlar va blogerlar uchun til madaniyati bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqish, raqamli platformalarda qisqa matnlar uchun uslubiy me'yorlar yaratish, elektron imlo va tahrir vositalaridan samarali foydalanish hamda adabiy til me'yorlarini ommaviy kommunikatsiya jarayoniga izchil tatbiq etish zarur. Mazkur jarayonda o'zbek tilining media makondagi nufuzini oshirish, axborot madaniyatini rivojlantirish va jamiyatda nutq madaniyatini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar / Лумепамыра / Reference:

- Austin J.L. (1962) *How to Do Things with Words*. – Oxford: Oxford University Press.
- Bell A. (1991) *The Language of News Media*. – Oxford: Blackwell.
- Crystal D. (2006) *Language and the Internet*. – Cambridge: Cambridge University Press.
- Dobrosklonskaya T.G. (2008) *Medialingvistika: sistemnyy podkhod k izucheniyu yazyka SMI*. – Moskva.
- Fairclough N. (1995) *Media Discourse*. – London: Edward Arnold.
- Grice H.P. (1975) *Logic and Conversation*. In: *Syntax and Semantics*. Vol. 3. – New York: Academic Press, – P. 41–58.
- Hymes D. (1972) *On Communicative Competence*. In: *Pride J.B., Holmes J. Sociolinguistics*. – Harmondsworth: Penguin, – P. 269–293.
- Mahmudov N. (2007) *O'qituvchi nutqi madaniyati*. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti.
- McLuhan M. (1964) *Understanding Media: The Extensions of Man*. – New York: McGraw-Hill.
- Qo'ng'urov R., Begmatov E., Tojiyev Yo. (1992) *Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari*. – Toshkent: O'qituvchi.
- Qudratov T. (1993) *Nutq madaniyati asoslari*. – Toshkent.
- Safarov Sh. (2008) *Pragmalingvistika*. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi.
- Van Dijk T.A. (1988) *News as Discourse*. – Hillsdale, NJ: Lawrence Erlbaum Associates.